


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI

**"TASDIQLAYMAN"**
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn
instituti rektori
O.R. Salixov
2025-yil " "
Ro'yxatga olindi: № DK-1.04
2025-yil " 29 " 08

DIZAYN LOYIHALASH ASOSLARI
FANI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000	–	San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	210 000	–	San'at
Ta'lim yo'nalishi:	60210400	–	Dizayn: libos va gazlamalar

Toshkent-2025

Fan/modul kodi DizLAs1208		O'quv yili 2025-2026	Semestr: 1-2	Kreditlar: 8
Fan/modul turi: Majburiy		Ta'lim tili: O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari: 4/4
1	Fanning nomi:	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Dizayn – loyihalash asoslari	120	120	240
2	I.Fanning mazmuni			
	<p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda “Dizayn-loyihalash asoslari” faniga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Ushbu kurs talabalarda ijodiy manbalar bilan ishlashni o'rgatadi, kreativ fikrlash, fantaziya va ijodiy salohiyatini rivojlantiradi, hamda liboslar dizaynini yaratishda dizaynerga kerak bo'lgan professional bilim va ko'nikmalarni rivojlantiradi.</p> <p>Fanning vazifalari: ijodiy loyihalar ustida ishlash jarayonida dizaynerlar oldiga qo'yiladigan masalalarni yechish va kiyim loyihalashtirishning progressiv usullarini o'rganish; hamda kiyimni loyihalash jarayonini tashkil etish va yo'lga qo'yishni mukammallashtirish yo'nalishlarini o'rganish; turli vazifalarga mo'ljallangan va har xil kiyim turlarining loyihalarini yaratish, badiiy bezash sohasidagi ilmiy-ижодий yo'nalishlarni o'rganish va ularni tahlil qilish.</p>			
2	II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlari)			
	<p style="text-align: center;">Fanga tarkibiga quydagi mavzular kiradi:</p> <p>I-mavzu. Liboslar va gazlamalarni badiiy-dekorativ bezashning turli usullarni o'rganish. Kashta tikish texnologiyasi, kashta turlari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish</p> <p>Kashtachilikda qo'llaniladigan an'anaviy va zamonaviy texnika va usullarni o'rganish, tahlil qilish.</p> <p>Kashtado'zlik, kashta – rangli iplar, kumush va tilla simlar, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar, marjon va munchoqlar, biser va shisha toshlar (steklyarus), payetkalar yordamida mato va materiallarga naqsh, rasm, gul solish (tushurish). Kashtado'zlik xalq hunarmandchilik san'atining eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro'zg'or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo'llaniladi.</p> <p>Mashinada erkin yuritilib kashta tikishda avval tikuv mashinasi to'rlash funksiyasiga sozlanadi. Keyin tikuvchi-kashtachi chambarakka tortilgan</p>			

matoni chizilgan tasvir bo'yicha turli yo'nalishlarda surib mato sirtida kashtali naqsh hosil qiladi.

Kompyuterli kashta maxsus avtomatik kashta tikish mashinasida bajariladi. Bu mashina maxsus yaratilgan hamda konstruktor yoki dizayner tomonida belgilangan kompyuterli dastur asosida ishlaydi.

Kashta namunalarini bajarish.

2-mavzu. Quroq texnologiyasi turlari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish.

Quroq– turli rang va shakldagi gazlama parchalarini ulab – qurab hosil qilingan buyum yoki ana shunday usulning nomi.

Xuddi shunday, **pechvork** (*ingl. patchwork* –parchalardan ishlangan, parchalardan tuzilgan) – qiyqimlarni tikish, qiyqimli texnika, qiyqimli mozaika, gazlamali mozaika–chevarchilikning bir turi, bunda mato parchalaridan (qiyqimlar, qiyindilaridan) mozaikaga o'xshatib (yoki mozaika tamoyillariga asoslanib) yaxlit buyum tikiladi.

3-mavzu. Bo'yash, batik texnikasi texnologiyasi, usullari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish.

Batik – XVIIasrda Indoneziyada kashf etilgan bo'lib, oq rangli ipak yoki paxta tolali mato ustiga turli xil gullar, naqsh va boshqa tasvirlar tushirish imkonini yaratuvchi texnologiyadir.

Batik san'ati bir necha xil texnologiyada bajariladi: issiq, sovuq, tugunli va erkin naqsh tushirish usullaridir.

Har bir usulda bajariladigan ishlar ketma-ketligida umumiy bosqichlar mavjuddir. Ya'ni, bo'yashdan avval matoni sovunli iliq suvda yaxshilab yuvib chayish lozim. Matoni qurigandan keyin dazmollanadi va bo'yashga tayyorlanadi.

Bo'yalgan yoki rasm tushirilgan mato folga bilan o'ralib, bug'da ishlov beriladi. Bu matodagi bo'yoqning mahkamlanishiga olib keladi. So'ng mato yana chayiladi va quritiladi.

Sovuq usuda bajariladigan batik ("gutta" texnikasi)sovuq rezervlash jarayoni amalga oshirilishi bilan farqlanadi. Matoga tasvir tushirish shisha naycha orqali rezerv, ya'ni sovuq mumni surat konturi bo'ylab oqizib chiqish orqali amalga oshiriladi. Bunda mum tushgan joy matoda rangsiz chiziq qoldiradi. Mumni turli xil ranglarga bo'yab xam surat tushirsa bo'ladi, bunda surat bir muncha aniqlashib grafik xarakterga ega bo'ladi. Bo'yoqlar rangtasvirli texnikada mo'yqalamlar yordamida surat konturi bo'ylab beriladi. Tayyor ish issiq bug'da puxtalanadi va dazmollanib, sovunli iliq suvda yuviladi.

Issiq usulda bajariladigan batik matoga badiiy ishlov berishning qadimgi usullaridan biridir. Ipak matoga quritilgan mum bilan tasvir tushirilib tasvir ranglari ochdan to'q ranga qadar buyoqlar bilan bo'yalish bosqichlaridan o'tadi, so'ng ish nihoyasida qotib qolgan mum issiq dazmol yordamida olib

tashlanadi. Bunda bo'yalgan mato ikki tarafdan qog'oz bilan yopiladi va mum erib qog'ozga shimilib ketguniga qadar dazmol urilib turiladi.

Erkin naqsh tushirish usuli rezerv va mumlarsiz amalga oshiriladi. Matoga naqsh va suratlarni tasvirlash mo'yqalam yordamida bo'yoqlarni erkin qo'yish bilan amalga oshiriladi, ba'zi hollarda yakuniy ishlar uchun rezervdan foydalaniladi. Hozirgi kunda turli hil akril bo'yoqlarining ishlab chiqarilishi birmuncha batik jarayonini yengillashtirdi, chunki akril bo'yoqlarini puxtalash qizdirilgan dazmol urish bilan amalga oshiriladi.

Tugunli batik batikning qadimiy turlaridan bo'lib, Hindistonda paydo bo'lgan va shu yerning o'zida keng tarqalgan. Matoning bo'yoqlar tegishi lozim bo'lmagan joylariga ip puxta qilib bir necha marta o'ralib bog'lanadi, so'ngra mato to'laligicha bo'yoqqa botiriladi. Tugunlar ichiga kichik hajmga ega buyumlar – tugmachalar, yoki toshchalarni qo'yib bog'lash xam turli bejirim qiziqarli naqshlar chiqishiga yordam beradi. Bo'yoqlash jarayonidan so'ng bu joylar rang tegmagan xolda qoladi. Tugun xosil qilish jarayonida turli xil shakllar, naqshlar, aylanalar, gorizonta va vertikal chizgilar va ularning uyg'unlashuvini hosil qilish mumkin.

Bo'yash, batik texnikasi qo'llangan namunalarni bajarish.

4-mavzu. Bosma qilish, blokprinting texnologiyalari, turlari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish.

Bosma san'ati — bu matoga, qog'ozga yoki boshqa asosga turli naqsh va tasvirlarni maxsus qolip (blok) yordamida tushirish usulidir. U qadimdan Hindiston, Xitoy, O'rta Osiyoda rivojlangan va bugungi kunda dekorativ san'at, dizayn, moda va amaliy hunarmandchilikda keng qo'llaniladi.

Bosma qilish turlari

1. Qo'lda bosma (blokprinting)

Yog'och, linoleum yoki kauchukdan kesib ishlangan qolip yordamida naqsh tushiriladi. Har bir rang uchun alohida blok ishlatiladi.

2. Shablon bosma. Karton yoki plastikdan qirqilgan shablon yordamida naqsh tushiriladi.

3. Sitotipiya (ekran bosma / screen printing). Maxsus to'rli ekran orqali bo'yoq o'tkazilib, matoga tushiriladi. Zamonaviy libos dizaynida keng qo'llanadi.

4. Digital bosma. Kompyuter yordamida ishlangan dizayn maxsus printer orqali to'g'ridan-to'g'ri matoga bosiladi. Tezkor va aniq tasvirlar olish imkonini beradi.

5-mavzu. Sinel texnikasi turlari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish.

Sinel texnikasi — bu xalq amaliy san'ati yo'nalishlaridan biri bo'lib, asosan, dekorativ bezaklar, liboslar yaratishda qo'llanishi mumkin. Sinel

texnikasining asosiy turlari;

Applikatsiya usuli; mato bo'laklarini kesib olib asosiy matoga tikib yoki yopishtirib naqsh hosil qilinadi.

Mozaika usuli; turli rangdagi mato bo'laklarini geometrik shakllar tarzida joylashtirish. Masalan, kvadrat, uchburchak, aylana bo'laklardan naqsh yasash.

Patchwork (qirqma usuli); turli xil mato bo'laklarini qo'shib, yirik kompozitsiya yasash.

6-mavzu. Sodda shaklli buyumlar loyihalari ustida ishlash (futbolkaning shakli misolida)

Loyihalash jarayonining bosqichlari bilan tanishish. Dizayn-loyihalash jarayonidagi bosqichlarni asosli ravishda amaliy bajarish Belgilangan ishlar rejasini aniqlash.

Libos va gazlamalarni badiiy bezash usullarini qo'llashda kompozitsiya kategoriyalari o'rganish. Bo'lajak dizayner uchun o'zining ijodiy uslubini shakllantirishga yo'naltirish; o'z konsepsiyasini badiiy ifodalashning vositalarini asoslashni o'rganish.

Futbolka turlari hamda ularning shakli va bichimini o'rganish. Ijodiy manba tanlash va uni o'rganish. Tadqiq qilingan manbalarni muhokama qilib, tahlil etish. To'ldirilgan ma'lumotlar asosida mavzu tanlash.

Tanlangan mavzu bo'yicha konsepsiya ishlab chiqish. Unga qisqacha ta'rif yozish. Asoslash. To'plangan materiallarni tahlil qilish.

Futbolka shaklining shablonlarida kompozitsiya eskizlarini yaratish.

7-mavzu. Futbolkaning zamonaviy dizaynini yaratish.

Futbolka shaklining shablonlarida yaratilgan kompozitsiyalar asosida modellarni ishlab chiqish, dekorativ bezash turini tanlash va asoslash. Dastlabki (sinov) nusxalarni bajarish;

Loyiha asosida futbolka modellarining texnologik ishlov berish, bezak, fakturasini asoslash.

Prototiplar ustida ishlash.

Loyiha asosida sodda shaklli buyum modellarini yaratish. Sketchbukda yakuniy xulosa va natijalarni keltirish.

8-mavzu. Libosda loyihalashda shakl.*

Geometrik hajmiy – fazoviy struktura tushunchasi. Geometrik hajmiy – fazoviy strukturaning qurilishi prinsiplari. Geometrik-fazoviy struktura qurilishiga ta'sir etuvchi omillar.

Materiallar tektonikasi. Materiallar plastikasi. Qog'oz plastikasini o'rganish. Plastik hajmiy – fazoviy struktura qurish. Barcha konstruktiv kamarlari hisobga olingan fazoviy-hajmiy struktura yaratish. Qog'oz materialidan relyef yuzasining qurilishini o'rganish. Turli usullar va turlicha materiallar yordamida hajmiy-fazoviy struktura yaratish.

9-mavzu. "Recycling"* yo'nalishidagi libos loyihalari ustida ishlash.

"Re-dizayn" tushunchasi. "Recycling" – ingl. "qayta ishlash", qaytadan tayyorlash" ma'nosida.

Tayyor sodda ko'rinishdagi buyumdan (futbolka, erkaklar ko'ylagi va b;) boshqa shakldagi libos dizaynini yaratish; erkaklar ko'ylagi, futbolkalarning shakli, jinsi matosidan bel yoki yelka kiyimlari asosida yangi model loyihalari ustida ishlash.

Tayyor sodda ko'rinishdagi buyumdan (erkaklar yoki ayollar ko'ylagi shakli, jinsi matosidan bel yoki yelka kiyimlari asosida) boshqa shakldagi libos dizaynini yaratish bo'yicha belgilangan ishlar rejasini aniqlash.

"Recycling" yo'nalishidagi libos modellari ustida ishlash.

Ma'lum g'oya asosida libos shakllarini uch yoqlama ko'rinishi ustidash izlanishlar olib borish. Kiyim yangi modelining maketlari va dastlabki nusxalarini yaratish.

Texnologik ishlov berish, shakl hosil qilish, bezak berish usullarini tanlash va asoslash.

"Recycling" yo'nalishidagi liboslarning 1 va 2 modellarini yakunlash. Liboslar fotosessiyasi ustida ishlash.

Prototiplarni yaratish. Loyihani yakunlash. Skeychbukda yakuniy xulosa va natijalarni keltirish.

****HSE Universiteti dasturi asosida ishlab chiqildi. (Jahon reytingida TOP 153 o'rinda Rossiya)***

III Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1.Kashta tikish texnologiyasi, kashta turlari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish.

2.Kashta namunalarini bajarish.

3.Quroq texnologiyasi turlari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish.

4.Bo'yash, batik texnikasi texnologiyasi, usullari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish.

5.Bo'yash, batik texnikasi qo'llangan namunalarni bajarish.

6.Bosma qilish, blokprinting texnologiyalari, turlari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish.

7.Sinel texnikasi turlari, uning vosita va imkoniyatlari bilan tanishish va namunalar bajarish.

8.Sodda shaklli buyumlar loyihalari ustida ishlash

(futbolkaning shakli misolida). Loyihalash jarayonining bosqichlari bilan tanishish. Belgilangan ishlar rejasini aniqlash.
9.Tanlangan mavzu bo'yicha konsepsiya ishlab chiqish. Unga qisqacha ta'rif yozish. To'plangan materiallarni tahlil qilish.
10.Futbolka shaklining shablonlarida kompozitsiya eskizlarini yaratish.
11.Futbolkaning zamonaviy dizaynini yaratish.
12.Futbolka shaklining shablonlarida yaratilgan kompozitsiyalar asosida modellarni ishlab chiqish, dekorativ bezash turini tanlash va asoslash.
13.Dastlabki (sinov) nusxalarni bajarish. Loyiha asosida futbolka modellarining texnologik ishlov berish, bezak, fakturasini asoslash.
14.Loyiha asosida sodda shaklli buyum modellari namunalarni yaratish.
15.Sketchbukda yakuniy xulosa va natijalarni keltirish.
16.Libosda loyihalashda shakl.* Hajmiy-fazoviy struktura qurish. Geometrik hajmiy – fazoviy strukturaning qurilishi prinsiplari. Materiallar tektonikasi. Materiallar plastikasi.
17.Qog'oz materialidan relief yuzasining qurilishini o'rganish.
18.Qog'oz plastikasini o'rganish. Plastik hajmiy – fazoviy struktura qurish.
19.Barcha konstruktiv kamarlari hisobga olingan turli usullar va turlicha materiallar yordamida hajmiy-fazoviy struktura yaratish. Loyiha jarayonidan fotolavhalar yig'ish. (wokr in progress)
20.Qog'oz ashyosidan manekenda 1 va 2 modellarning xajmiy- fazoviy shakli ustida ishlash.
21.Maket matosidan manekenda 1 va 2 modellarning xajmiy- fazoviy shakli ustida ishlash.
22.Loyihani yakunlash. Loyiha portfoliosini taqdimot uchun tayyorlash.
23.“Recycling”* yo'nalishidagi libos loyihalari ustida ishlash. “Re-dizayn” tushunchasi. “Recycling” yo'nalishidagi libos dizaynini yaratish bo'yicha belgilangan ishlar rejasini aniqlash.
24.“Recycling” yo'nalishidagi libos modellari ustida ishlash.
25.Ma'lum g'oya asosida libos shakllarini uch yoqlama ko'rinishi ustida izlanishlar olib borish.
26.Yangi modellarning maketlari va dastlabki nusxalarini yaratish.
27.1-modelning yelka va bel kiyimlari ustida ishlash.
28.2-modelning yelka va bel kiyimlari ustida ishlash.
29.“Recycling” yo'nalishidagi liboslarning 1 va 2 modellarini yakunlash. Liboslar fotosessiyasi ustida ishlash.
30.Loyihaning nazariy, texnik va ijodiy konsepsiyasini o'z ichiga olgan loyiha portfoliosini taqdimot uchun tayyorlash.

**HSE Universiteti dasturi asosida ishlab chiqildi. (Jahon reytingida TOP 153 o'rinida Rossiya)*

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

1. Kashta tikish texnologiyasining an'anaviy usulini zamonaviy ko'rinishda noan'anaviy qo'llash bo'yicha taqdimot tayyorlash va tahliliy asoslash. Namunalarni davom ettirish.
2. Kashta namunalarni yakunlash.
3. Quroq, pechvork, kvilting texnologiyasining an'anaviy usulini zamonaviy ko'rinishda noan'anaviy qo'llash bo'yicha taqdimot tayyorlash va tahliliy asoslash. Namunalarni yakunlash.
4. Bo'yash, batik texnikasining an'anaviy usulini zamonaviy ko'rinishda noan'anaviy qo'llash bo'yicha taqdimot tayyorlash va tahliliy asoslash. Namunalarni davom ettirish.
5. Namunalarni yakunlash.
6. Bosma qilish, blokprinting texnologiyasi qo'llangan namunalarni yakunlash.
7. Plisse, gofre, taxlamalar va boshqa bezak turlari qo'llangan namunalarni yakunlash.
8. Asosiy mavzu bo'yicha yaratilayotgan futbolka mos ravishda aksessuar loyihasi ustida ishlash. Belgilangan ishlar rejasini aniqlash.
9. Tanlangan mavzu bo'yicha konsepsiya ishlab chiqish. Futbolka va aksessuar loyihasining konsepsiyasi uchun qo'shimcha materiallar (manbalar, ma'lumotlar) to'plash.
10. Aksessuar loyihasi bo'yicha eskizlar ustida ishlash. Futbolka shaklining shablonlarida kompozitsiya eskizlarini davom ettirish va yakunlash.
11. Aksessuar dizayni ustida ishlash. Futbolkaning zamonaviy dizaynini yaratish, unga bezak berish ishlarini davom ettirish.
12. Aksessuarlarning dastlabki (sinov) nusxalarni bajarish. Loyiha asosida futbolka modellarining sinov nusxalarini sayqallash.
13. Aksessuarlarning prototiplari ustida ishlash.
14. Aksessuarlar namunalarni yaratish. Futbolka namunalarni yakunlash
15. Yakuniy ko'rikka tayyorgarlik ko'rish.
16. Plastik hajmiy – fazoviy struktura qurish. Plastik hajmiy – fazoviy struktura qurish uchun materiallar tektonikasi va materiallar plastikasini turli libos modellari asosida o'rganish va tahlil qilish.
17. Plastik hajmiy – fazoviy struktura qurish uchun qog'ozdan relief yuzalarni turli usullar bilan yaratishni o'rganish.
18. Plastik hajmiy – fazoviy struktura qurish (auditoriyada boshlangan namunalarni davom ettirish).
19. Plastik hajmiy – fazoviy struktura qurish (auditoriyada boshlangan namunalarni davom ettirish).
21. Auditoriyada boshlangan namunalarni davom ettirish.
22. Auditoriyada boshlangan namunalarni davom ettirish.
23. Auditoriyada boshlangan namunalarni davom ettirish.
24. Redizayn yo'nalishida asosiy mavzuga mos ravishda sumka loyihasi ustida

	<p>ishlash. 25.“Recycling” yo‘nalishidagi sumka modellari ustida ishlash. 26.Auditorida boshlangan libos shakllarini uch yoqlama ko‘rinishi ustida izlanishlarni davom ettirish. Sumkaning loyihasi bo‘yicha ishlarni davom ettirish 27.Sumka yangi modelining dastlabki nusxalarini yaratish. Kiyim modellarning dastlabki nusxalarini yaratish bo‘yicha ishlarni davom ettirish. 28.Prototiplarni yaratish. 29.Prototiplarni yaratish. 30.Loyihani yakunlash. Yakuniy ko‘rikka tayyorgarlik ko‘rish</p> <p style="text-align: center;">Fan bo‘yicha kurs ishi Kurs ishi o‘quv rejada ko‘rsatilmagan.</p>
3.	<p>V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) “Dizayn-loyihalash” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • badiiy loyihalash sohasidagi tarixiy tajribalar; • zamonaviy moda yo‘nalishi tendensiyalari <i>haqida tasavvurga ega bo‘lishi</i>; • libos dizayn va gazlamalarni badiiy loyihalashning zamonaviy vosita va usullarini; • ijod qilishning turli usullarini; • sodda va murakkab namunalar loyihasini yaratishni; • liboslarni loyihalash sohasidagi terminologiya, asosiy tushuncha va asosiy loyihalash metodlarini; • libos kolleksiyasining kompozitsiyasini; • dizayn-loyihaga qo‘yiladigan talablarni; • dizayn-loyihaga qo‘yiladigan talablarning batafsil spetsifikatsiyasini tuzishni <i>bilishi</i>; • badiiy loyihalashda qo‘llaniladigan asosiy materiallar, ularning hususiyatlari, plastikasi, tektonikasini tushunish va ularni qo‘llash; • assotsiativ fazoviy, siymoli fikrlash; • konseptual fikrlash va dizayn yo‘nalishida tadqiqot olib borish; • o‘z takliflarini ilmiy asoslash; • liboslarni maketlash va modellashtirish; • berilgan materialda loyihani bajarish <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi</i>; • ma‘lum mavzudagi yoki buyurtma asosidagi ijodiy loyihani bajarish va uni asoslash <i>malakalariga ega bo‘lishi kerak.</i>
4	<p>VI. Ta‘lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • tayanch ma‘ruza-taqdimotlar; • interfaol keys-stadilar; • seminar mashg‘ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar

5	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganiladigan jaraenlar haqida mustaqil mushohada yuritish, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni taqdim etish, asoslash va uni himoya qilish.</p>
6	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. F.Z.Ataxanova "Dizayn-loyihalash", OO'Yu talabalari uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent : Fan va texnologiya, 2018. - 368 b. 2. X.X.Komilova, Vohidova U.A. "Loyihalash", OO'Yu uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent : Fan va texnologiya, 2017. - 188 b. 3. Fashion Design (Portfolio (Laurence King)): Sue Jenkyn Jones: 272 pages; Publisher: Laurence King Publishing; 3 edition (24 Mar. 2011). 4. Бердник Т.О., Неклюдова Т.П. "Дизайн костюма", Ростов -на -Дону Феникс 2000 г.481 стр. 5.Торебаев Б.П., Ж.У.Мырхалыков "Орнаментальная композиция в дизайне швейных изделий" уч. пособие. Издательский центр ЮКГУ им.М.Ауезова, г.Шымкент.-134 стр. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Rahmatullaeva D., Xodjaeva U., Ataxanova F. "Libos tarixi", darslik, Toshkent: "Cano-standart" nashriyoti, 2015 y.-336 b. 2. Гусейнов Г.М., Ермилова В.В., Ермилова Д.Ю., Ляхова Н.Б., Финашина Е.М. "Композиция костюма", учеб. пособие. – М. Издателский центр «Академия», 2003 г. – 432 с. 3. "Fashion Design. Drawing Course". Caroline Tatham, Julian Seaman, "Barron's Educational Series", 2003 4. "Field guide: How to be a fashion Designer". Marcarena San Martin. Copyright ©, 2009, by Mao-Mao publications. First published in 2009 in the United States of America by Rockport Publishers, a member of Quayside Publishing Group. 5. Проектирование костюма : учеб. пособие / Л. М. Тухбатуллина, Л. А. Сафина, В. В. Хамматова. - Ростов н/Д : Феникс, 2007. - 284 с. 6. Пармон Ф.М. "Композиция костюма", учеб. – М.: Легпробытиздат, 1997 г. – 318 с. 7. Петушкова Г.И. "Проектирование костюма", учеб. – М.: Издательский центр «Академия», 2004 г. – 416 с. 8. Бердник Т.О., Неклюдова Т.П. "Дизайн костюма", учеб. пособие. Ростов-на-Дону. Феникс, 2000 г.-265 с. 11.Аллаберганова А.Б., Атаханова Ф.З. "Основы методологии дизайна". – Ташкент, ИПТД имени Чулпана, 2016г. <p>Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www. ziyonet. uz 2. https://studfile.net/preview/8428392/page:3/

	<p>3. https://isaloni.su/raznoe/etno-eto-stil-40-yarkih-foto-sovremennye-ukrasheniya.html</p> <p>4. https://www.livemaster.ru/topic/896697-etno-stil</p> <p>5. https://wlooks.ru/stili-odezhdy/etnicheskij/</p> <p>6. https://infourok.ru/material</p> <p>7. https://kostumologiya.ru/</p> <p>8. https://www.elldesign.ru/info/articles</p> <p>9. https://blog.fashionfactoryschool.com</p>
7	<p>Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2025 yil <u>29</u> - <u>08</u> № <u>1</u> sonli qarori bilan tasdiqlangan.</p>
8	<p>Fan/modul uchun ma'sullar: Z.S.Umarova – MRDI, “Libos dizayni” kafedrası o'qituvchisi</p>
9	<p>Taqrizchilar: U.Raxmatullayeva – TTESI, “Moda va dizayn” kafedrası professori, f.f.d (PhD), U.M.Xodjayeva MRDI, – “Libos dizayni” kafedrası dotsenti</p>